

QADIMGI YOZMA YODGORLIKLARNING UMUMIY TAVSIFI
ОБЩЕЕ ОПИСАНИЕ ДРЕВНИХ ПИСЬМЕННЫХ ПАМЯТНИКОВ.
GENERAL DESCRIPTION OF ANCIENT WRITTEN MONUMENTS.

Xojimamatov Azimjon Fayzullo O'G'Li

Farg'ona davlat universiteti

Farg'ona, o'zbekiston

azimjonxojimamatov@gmail.com

[+99893-640-73-09](tel:+99893-640-73-09)

Ходжимаматов Азимжон Файзуллаевич

Ферганский государственный университет

Фергана, узбекистан

azimjonxojimamatov@gmail.com

[+99893-640-73-09](tel:+99893-640-73-09)

Khojimamatov is the son of Azimjon Fayzullo

Fergana state university

Fergana, uzbekistan

azimjonxojimamatov@gmail.com

[+99893-640-73-09](tel:+99893-640-73-09)

Annotatsiya: Ushbu maqolada qadimgi yozma yodgorliklarning hozirgi turkiy xalqlar tarixiy, madaniy va ma'naviy taraqqiyotidagi o'rnini yoritishga bag'ishlanadi. Qadimgi yozma manbalar — O'rxun-Enasoy bitiklari, "Devonu lug'otit turk", "Qutadg'u bilig", "Hibat ul-haqoyiq", "O'g'uznoma" kabi asarlar turkiy xalqlarning til, adabiyot, davlat boshqaruvi, urf-odat va dunyoqarashini o'rganishda muhim ilmiy manba hisoblanadi. Ushbu yozma yodgorliklar turkiy xalqlarning yagona ildizdan shakllanganligini, ularning tarixiy taraqqiyot yo'llari o'zaro mushtarakligini ko'rsatadi. Qadimgi bitiklar nafaqat tarixiy hujjat, balki turkiy xalqlarning siyosiy, ijtimoiy va madaniy hayotini aks ettiruvchi bebaho merosdir. Ular orqali qadimgi turkiy tilning rivojlanish bosqichlari, xalq og'zaki ijodi, badiiy tafakkur hamda axloqiy qarashlar o'rganiladi. Ayniqsa, O'rxun bitiklarida turkiy xalqlarning davlat boshqaruvi, xalq va hukmdor o'rtasidagi munosabatlar, vatanparvarlik va birlik g'oyalari aks etgan.

Kalit so'zlar: Qadimgi yozma yodgorliklar, turkiy xalqlar, O'rxun-Enasoy bitiklari, turkiy adabiyot, turkiy til taraqqiyoti, Devonu lug'otit turk, Qutadg'u bilig, madaniy meros, tarixiy manbalar, milliy qadriyatlar, turkiy sivilizatsiya, ma'naviy meros, etnografiya, folklor, turkiy madaniyat, adabiy yodgorliklar, tarixiy birlik, turkiy dunyo, qadimgi bitiklar

Аннотация: Данная статья посвящена освещению роли древних письменных памятников в историческом, культурном и духовном развитии современных тюркских народов. Древние письменные источники — Орхун-Энасойские надписи,

такие произведения, как «Девону луг'отит тюрк», «Кутадгу билиг», «Хибат уль-хакойик», «Огузнома» — являются важными научными источниками для изучения языка, литературы, государственного управления, обычаев и мировоззрения тюркских народов. Эти письменные памятники показывают, что тюркские народы сформировались из единого корня, и их исторические пути развития являются общими. Древние надписи — это не только исторические документы, но и бесценное наследие, отражающее политическую, социальную и культурную жизнь тюркских народов. Через них изучаются этапы развития древнего тюркского языка, народного устного творчества, художественного мышления и нравственных взглядов. В частности, орхонские надписи отражают идеи государственного управления, отношения между народом и правителем, патриотизм и единство тюркских народов.

Ключевые слова: древние письменные памятники, тюркские народы, надписи Ёрхун-Энасой, тюркская литература, развитие тюркского языка, Дивану Лугатит Турк, Кутадгу Билиг, культурное наследие, исторические источники, национальные ценности, тюркская цивилизация, духовное наследие, этнография, фольклор, тюркская культура, литературные памятники, историческое единство, тюркский мир, древние надписи

Annotation: This article is dedicated to highlighting the role of ancient written monuments in the historical, cultural, and spiritual development of contemporary Turkic peoples. Ancient written sources — such as the Orkhon-Inscriptions, "Divanu Lughat-it-Turk," "Qutadghu Bilig," "Hibat al-Haqayiq," and "Oghuzname" — are important scholarly resources for studying the language, literature, state governance, customs, and worldview of Turkic peoples. These written monuments demonstrate that Turkic peoples share a common root and that their paths of historical development are interconnected. Ancient inscriptions are not only historical documents but also invaluable heritage reflecting the political, social, and cultural life of Turkic peoples. They allow us to study the stages of development of the ancient Turkic language, folk oral creativity, artistic thought, as well as moral perspectives. In particular, the Orkhon inscriptions reflect the state governance of Turkic peoples, the relationship between the people and the ruler, and ideas of patriotism and unity.

Keywords: Ancient written monuments, Turkic peoples, Orkhun-Enasoy inscriptions, Turkic literature, development of the Turkic language, Divanu Lugatit Turk, Kutadgu bilig, cultural heritage, historical sources, national values, Turkic civilization, spiritual heritage, ethnography, folklore, Turkic culture, literary monuments, historical unity, Turkic world, ancient inscriptions

Turkiy xalqlar insoniyat tarixida muhim o'rin egallagan yirik etnik va madaniy birliklardan biri hisoblanadi. Ular qadimdan Markaziy Osiyo, Sibir, Oltoy, Kavkaz, Volgabo'yi, Anadolu hamda Sharqiy Yevropa hududlarida yashab kelgan va boy tarixiy-

madaniy meros yaratgan. Turkiy xalqlarning shakllanishi uzoq tarixiy jarayonlar davomida yuz bergan bo'lib, ularning umumiy til, urf-odat, an'ana va dunyoqarash jihatlarida yaqinlik kuzatiladi. Ushbu mushtaraklik turkiy xalqlarning qadimgi yozma yodgorliklarida yaqqol aks etgan. Qadimgi yozma yodgorliklar turkiy xalqlarning eng qadimiy tarixiy, adabiy va madaniy manbalari hisoblanadi. Ular orqali turkiy xalqlarning kelib chiqishi, davlat tuzilishi, ijtimoiy hayoti, harbiy san'ati, urf-odatlari hamda ma'naviy qadriyatlari haqida muhim ma'lumotlar olinadi. Ayniqsa, O'rxun-Enasoy bitiklari turkiy xalqlarning dastlabki yozma manbalaridan biri bo'lib, unda qadimgi turk davlatlari tarixi, hukmdorlar faoliyati va xalq hayoti haqida muhim ma'lumotlar bayon etilgan. Qadimgi turkiy xalqlar tarixi: umumiy ma'lumot Turkiy xalqlar tarixi asosan qadimgi bitiklar — **O'rxun-Enasoy bitiklari** kabi yozma yodgorliklar orqali o'rganiladi. Bu bitiklar VIII asrda Mo'g'uliston O'rxun vodiysida topilgan va ular turkiylarning siyosiy, ijtimoiy, diniy hayoti hamda urf-odatlari haqida muhim ma'lumot beradi. Bitiklar ikki tilda yozilgan: qadimgi turkiy (Run alifbosi) va o'rta xitoy tili. Ular orqali turkiy xalqlar o'z tarixlarini ham til orqali qoldirishgan. [5,207-bet.]


O'rta asrlarga kelib turkiy yozma adabiyot yanada rivojlanib, ilmiy, falsafiy va badiiy asarlar yaratilgan. Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asari turkiy tillarning boyligini, ularning lug'aviy va madaniy xususiyatlarini o'rganishda muhim manba hisoblanadi. [1,156-159-betlar.] Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asari esa davlat boshqaruvi, adolat, axloqiy qadriyatlar va komil inson tarbiyasi masalalarini yorituvchi muhim adabiy yodgorliklardan biridir. Bugungi kunda qadimgi yozma yodgorliklar turkiy xalqlarning umumiy tarixiy merosi sifatida katta ilmiy va ma'naviy ahamiyatga ega. Ular turkiy xalqlar o'rtasidagi madaniy yaqinlikni mustahkamlash, tarixiy ildizlarni o'rganish hamda milliy o'zlikni anglashda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Shu sababli ushbu yodgorliklarni o'rganish, saqlash va targ'ib qilish zamonaviy ilm-fan oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

O'rta asr yozma yodgorliklari esa turkiy adabiy tilning shakllanishi va rivojida muhim ahamiyat kasb etadi. Mahmud Koshg'ariy tomonidan yaratilgan "Devonu lug'otit turk" asari turkiy xalqlarning til boyligi, folklori, she'riyati hamda etnografiyasini yoritib beradi. Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asari esa davlat boshqaruvi, adolat, ma'naviyat va komil inson tarbiyasi masalalarini yuksak badiiy va falsafiy darajada talqin etadi. [10,103-107-betlar.] Bugungi kunda qadimgi yozma yodgorliklar turkiy xalqlar o'rtasidagi madaniy yaqinlikni mustahkamlash, umumiy tarixiy ildizlarni o'rganish hamda milliy o'zlikni anglashda muhim ahamiyatga ega. Ular yosh avlodni milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish hamda turkiy xalqlar o'rtasidagi madaniy hamkorlikni mustahkamlashda muhim manba hisoblanadi. Mazkur yodgorliklar turkiy xalqlarning umumiy tarixiy merosi sifatida jahon sivilizatsiyasi rivojiga ham katta hissa qo'shgan.

Qadimgi yozma yodgorliklar turkiy xalqlarning madaniyati va san'atining shakllanishida muhim tarixiy manba bo'lib xizmat qiladi. Ushbu manbalar turkiy

xalqlarning nafaqat siyosiy va ijtimoiy hayotini, balki ularning badiiy tafakkuri, estetik qarashlari, musiqa, adabiyot va xalq og‘zaki ijodi rivojini ham yoritib beradi. Qadimgi turkiy yozma manbalarda xalqning urf-odatlarini, an‘analari, san‘atga bo‘lgan munosabati hamda ma‘naviy qadriyatlari aks etgani bilan alohida ahamiyat kasb etadi.



O‘rxun Enasoy bitiklari turkiy xalqlarning ilk yozma yodgorliklaridan biri sifatida ularning madaniy va ma‘naviy dunyosini aks ettiradi. Ushbu bitiklarda turkiy xalqlarning birlik, vatanparvarlik, jasorat, ajdodlarga hurmat kabi qadriyatlari ifodalangan bo‘lib, bu g‘oyalar keyinchalik turkiy xalqlar adabiyoti va san‘atida keng rivojlangan. Bitiklardagi badiiy ifoda usullari, obrazli tasvirlar ham turkiy xalqlarda adabiy tafakkur shakllanganligini ko‘rsatadi. Bu esa xalq og‘zaki ijodi, dostonchilik, qo‘shiqchilik kabi san‘at turlarining paydo bo‘lishiga zamin yaratgan.



O‘rxun Enasoy bitiklari. (Qadimgi turkiy yozuvlar)

Bu bitiklar milodiy VIII asrga oid bo‘lib, qadimgi turk tilida yozilgan eng qadimiy yozma yodgorliklardan biridir. Unda turkiy xalqlarning siyosiy hayoti, davlat tuzilishi, jasorat va birlik g‘oyalari aks etgan. [6,146-bet.]


Turkiy xalqlar madaniyati va san‘atining rivojida o‘rta asr yozma yodgorliklari ham muhim o‘rin tutadi. Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asari turkiy xalqlarning til boyligi bilan bir qatorda ularning folklori, qo‘shiqlari, maqollari va og‘zaki ijod namunalari haqida qimmatli ma‘lumot beradi. Ushbu asarda keltirilgan she‘riy parchalar turkiy xalqlarda she‘riyat, musiqa va xalq ijodi o‘zaro bog‘liq holda rivojlanganini ko‘rsatadi. Chunki qadimdan turkiy xalqlar madaniyatida musiqa va she‘riyat bir-birini to‘ldirib kelgan.



“Devonu lug‘otit turk” (Mahmud Koshg‘ariy)

XI asrda yaratilgan bu asar turkiy tillar lug‘ati bo‘lib, unda nafaqat til, balki xalq og‘zaki ijodi, maqollar, she‘riy namunalar ham yig‘ilgan. [4]

Yusuf Xos Hojibning (1019–1077) - “Qutadg‘u bilig” asari ham turkiy xalqlarning badiiy tafakkuri, axloqiy qarashlari va madaniy qadriyatlarini o‘zida mujassam etgan yirik adabiy yodgorlik hisoblanadi. [2,173-bet.] Ushbu asarda davlat boshqaruvi, adolat, insoniy fazilatlar, jamiyat hayoti badiiy obrazlar orqali yoritilgan. Asar turkiy xalqlar san‘atida falsafiy va didaktik yo‘nalishlarning shakllanishiga katta ta‘sir ko‘rsatgan.

**“Qutadg‘u bilig” (Yusuf Xos Hojib)**

Bu asar turkiy adabiyotning eng yirik yodgorliklaridan biri bo‘lib, davlat boshqaruvi, adolat, axloq va komil inson tarbiyasiga bag‘ishlangan falsafiy doston.

Turkiy xalqlar san‘ati rivojida “O‘g‘uznoma” kabi epik asarlar ham muhim o‘rin egallaydi. Ushbu dostonlarda turkiy xalqlarning qahramonlik, jasorat, mardlik va vatanparvarlik ruhidagi qarashlari badiiy tasvirlar orqali ifodalangan. Bunday epik asarlar keyinchalik xalq dostonchiligi, teatr san‘ati hamda musiqa madaniyatining rivojiga asos bo‘lgan. [11,97-bet.] Ayniqsa, baxshichilik va dostonchilik an‘analari turkiy xalqlar madaniyatining ajralmas qismi hisoblanadi. Qadimgi yozma yodgorliklar turkiy xalqlarning musiqa san‘ati taraqqiyotini o‘rganishda ham muhim ahamiyatga ega. Qadimgi manbalarda qo‘shiqchilik, cholg‘u asboblari, marosim qo‘shiqlari hamda xalq musiqa an‘analari haqida ma‘lumotlar uchraydi. Bu esa turkiy xalqlarning musiqa madaniyati qadimiy ildizlarga ega ekanligini ko‘rsatadi. Turkiy xalqlarning milliy cholg‘ulari, doston kuylash an‘analari, marosim qo‘shiqlari bugungi kunda ham xalq madaniyatining muhim tarkibiy qismi sifatida saqlanib kelmoqda. Bugungi kunda qadimgi yozma yodgorliklar turkiy xalqlar madaniyati va san‘atining umumiy ildizlarini o‘rganishda muhim ilmiy manba hisoblanadi.

	e	a/e	w/v	y	o/u	ö/ü	z	ž	x	q	y/i
Initial											
Medial											
Final											

No	Lat.	Tamil letters 200 BC	Cuthun letters 700 AD	Kharoshthi letters 500 BC	No	Lat.	Tamil letters 200 BC	Cuthun letters 700 AD	Kharoshthi letters 500 BC
1	a, ā	அ, ஆ	𑌀, 𑌁	𑖀, 𑖁	23	ne	-	𑌎, 𑌏	-
2	ā	ஈ	𑌂	𑖂	24	ne	-	𑌎	-
3	e	ஊ	𑌃	𑖃	25	o, u	ஓ, ஔ	𑌐	𑖄
4	e	ஊ	𑌃	𑖃	26	oq, u	ஓ, ஔ	𑌐	𑖄
5	ai	ஈ	𑌄	𑖄	27	o, u	ஓ, ஔ	𑌐	𑖄
6	ai	-	𑌄	𑖄	28	v	ஹ	𑌑	𑖅
7	y	ஈ	𑌅	𑖅	29	p	ஹ	𑌑	𑖅
8	o	ஊ	𑌆	𑖆	30	p	ஹ	𑌑	𑖅
9	i	-	𑌇	𑖇	31	p	ஹ	𑌑	𑖅
10	y	ஈ	𑌈	𑖈	32	ai	ஹ	𑌒	𑖆
11	j	-	𑌉	𑖉	33	ai	ஹ	𑌒	𑖆
12	j	ஊ	𑌊	𑖊	34	i	ஹ	𑌓	𑖇
13	q	ஊ	𑌋	𑖋	35	i	ஹ	𑌓	𑖇
14	r	ஊ	𑌌	𑖌	36	th	ஹ	𑌔	𑖈
15	i	ஈ	𑌍	𑖍	37	x	ஹ	𑌕	𑖉
16	i	-	𑌎	𑖎	38	x	ஹ	𑌕	𑖉
17	it	-	𑌏	𑖏	39	h	ஹ	𑌖	𑖊
18	m	ஊ	𑌐	𑖐	40	h	ஹ	𑌖	𑖊
19	h	ஊ	𑌑	𑖑	41	h	ஹ	𑌖	𑖊
20	n	ஊ	𑌒	𑖒	42	z	ஹ	𑌗	𑖋
21	h	ஊ	𑌓	𑖓	43	z	ஹ	𑌗	𑖋
22	ny, nv	ஊ	𑌔	𑖔	44	o	-	-	𑖌

Turkiy yozuvlarning evolyutsiyasi. Turkiy xalqlarda yozuv tizimi vaqt o'tishi bilan runik yozuvdan boshlab uyg'ur, arab-fors yozuvi, keyin kirill va lotin asosidagi yozuvlarga o'tgan — bu evolyutsiya madaniy almashinuv va tarixiy jarayonlarni ko'rsatadi. [9]



- ❖ O'rxun-Enasoy bitiklari — turkiy til va tarixining eng qadimgi yozma manbasi;
- ❖ Qadimgi turkiy yozuv orqali o'sha davr siyosati, urf-odatlar, til va madaniyat haqida faktlar saqlangan.

Ushbu yodgorliklar turkiy xalqlar madaniyati va tarixini o'rganishda beqiyos ahamiyatga ega bo'lgan manba hisoblanadi.

Xulosa.

Qadimgi yozma yodgorliklar hozirgi turkiy xalqlarning umumiy madaniy va tarixiy merosi hisoblanadi. Ular turkiy xalqning qadimiyligini, boy tarixini, o'ziga xos madaniyati va ma'naviy qadriyatlarini tasdiqlaydi. Shu manbalar orqali turkiy xalqlar o'z tarixini anglab, madaniy identitetini saqlaydi va kelajak avlodlarga yetkazadi. Qadimgi yozma yodgorliklar — turkiy xalqlarning tarixiy ongini shakllantiruvchi, madaniy merosini asrab-avaylaydigan va xalq birligini mustahkamlovchi bebaho boylikdir. Ushbu yodgorliklar turkiy xalqlarni birlashtiruvchi umumiy tarixiy va madaniy xotira sifatida qaraladi. Qadimgi bitiklar nafaqat tarixiy hujjat, balki xalqning ma'naviy merosi, estetik qarashlari va badiiy tafakkurini aks ettiruvchi noyob manba hisoblanadi. Shu sababli hozirgi turkiy xalqlar qadimgi yozma yodgorliklarni o'rganib, saqlab qolish orqali o'z madaniy identitetini mustahkamlashga, tarixiy ildizlarini anglashga va kelajak avlodlarga yetkazishga intiladi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. N.Rahmonov - "O'zbek adabiyoti tarixi" (eng qadimgi davrlardan XV asrga qadar saqlangan ma'lumot). 2017-yil. 556 betdan iborat. Mazkur qo'llanma o'zbek adabiyotining eng qadimgi davrlaridan XV asrning birinchi yarmigacha bo'lgan davrni qamrab olgan. Qo'llanmada birinchi marta qadimgi turkiy mif va afsonalar, islomgacha bo'lgan davr yozma yodgorliklari o'zbek xalqining adabiy yodgorliklari va yozma manbalari sifatida batafsil yoritilgan. 156–159 betlar.
2. Malov S.Y. "Pamyatniki drevnetyurkskoy pismennosti", M. L. 1951. 173-bet.
3. Nasilov V.M. "Yazik orxonoyeniseyskix pamyatnikov", M. 1960.
4. G.Serbak A.M. "Grammatika starouzbekskogo yazika", M.L. 1962. Borovkov A.K. "Leksika sredneaziatskogo tefsira XII-XV" M., 1963.
5. Faznlov E.I. "Starouzbekskiy yazj. Xorezmiyskiye pamyatniki XIV veka" T. 1971. 207-bet.
6. Baskakov N.A. "Vvedeniye v izucheniye tyurkskix yazikov", M.1969. 146-bet.
7. Kononov A.N. "Istoriya izucheniya tyurkskix yazikov v Rossii", L. 1972.
8. G'.Abdurahmonov, Sh.Shukurov "O'zbek tilining tarixiy grammatikasi" T. 1973. 103-107-betlar.
9. Tursunov U. O'rinboyev B. "O'zbek adabiy tili tarixi", T.1982.
10. Abdurahmonov G'. Rustamov A. "Qadimgi turkiy til" T.1982.
11. I.Qo'chqortoyev, B.Isabekov "Turkiy filologiyaga kirish", T. 1984. 97-bet.
12. Qo'shimcha ma'lumotlar jamlangan vikipediya matni mualliflari.

https://uz.wikipedia.org/wiki/Qadimgi_turkiy_tillar